



Mayor's Office of  
Immigrant Affairs



# ICE bilan bog'liq huquqlaringizni bilib oling

---

Agar sizga **ICE** (Immigratsiya  
va bojxona nazorati xizmati)  
agentlari murojaat qilsa,  
bu borada sizning ham  
huquqlaringiz bor!



**Agar ICE  
uyingizga  
kelsa, nima  
qila olasiz?**



ICE yoki immigratsiya xizmati agentlariga eshikni ochishingiz **shart emas**. Sukut saqlash **huquqiga ega** ekanligingizni unutmang.

## Agar ICE yoki immigratsiya xizmati eshigingiz oldida bo'lsa:



**Eshikni ochmasdan turib** ulardan kimligini so'rashingiz va nishoni, ID kartasi yoki tashrif qog'ozini derazadan, eshik ko'zidan ko'rsatishlarini yoki yopiq eshik tagidan uzatishlarini so'rashingiz mumkin.



Agar eshigingiz oldida ICE/Immigratsiya xizmati turganiga amin bo'lsangiz, ulardan **sud orderi (judicial warrant)** bor-yo'qligini so'rang.

Sud orderi – bu ICE/Immigratsiya xizmatiga muayyan joyni tintuv qilish yoki shaxsni hibsga olish huquqini beruvchi, sudya tomonidan imzolangan hujjatdir.

Agar ular: **“YO‘Q, menda order yo‘q”** desa, siz ularni uyga kiritishga majbur emassiz. Ularga shunday deyishingiz mumkin:



“I do not want to speak with you.”  
(Siz bilan gaplashishni xohlamayman.)

Agar ular: **“HA, menda order bor”**, deb javob berishsa, uni eshik tagidan surib berishlarini so‘rang.



Agar hujjatni sudya imzolagan bo‘lsa, unga amal qilishingiz kerak.

Agar ICE sizning uyingizda bo‘lmagan biror kishini qidirayotgan bo‘lsa, **ular bilan gaplashishga majbur emassiz**. Agar gaplashishga qaror qilsangiz, ICE’dan aloqa ma’lumotlarini qoldirishini so‘rashingiz mumkin. ICE’ga o‘sha shaxsning qayerdaligini aytishga majbur emassiz, shunga qaramay yolg‘on ma’lumot bersangiz, o‘zingizni xavf ostiga qo‘ygan bo‘lasiz.



**Favqulodda vaziyatda**, masalan, jamoat xavfsizligiga yoki kimningdir hayotiga tahdid bo‘lganda, ICE sizdan ruxsat so‘ramasdan kirishi mumkin. Agar mana shunday holat yuz beradigan bo‘lsa, **sukut saqlash huquqiga ega** ekanligingizni unutmang.

# ICE uyingizdaligida nima qila olasiz?

Men tintuv  
o'tkazishingizga  
**rozimasman.**



Agar ICE xizmati uyingizga ruxsatingizsiz kirsas, ularga aniq qilib: **“I do not consent to you being in my home. Please leave.” (Uyimda bo‘lishingizga rozimasman. Chiqib keting.)** deyishingiz mumkin. Bunday deganingizdan keyin ular har doim ham to‘xtatmasligi mumkin, lekin bu kelajakdagi har qanday sud ishida yordam berishi mumkin.



Agar ICE xizmati uyingizdagi xonalarni yoki buyumlarni tintishni boshlasa, ularga **“I do not consent to your search” (Tintuv o‘tkazishingizga rozimasman)** deyishingiz mumkin.



Agar ular roziliksiz tintuv o‘tkazishda davom etishsa, siz ham buni takrorlashda davom etishingiz mumkin. Uyingizda bolalar yoki boshqa himoyaga muhtoj shaxslar borligi haqida ularga aytishingiz mumkin.



Huquq-tartibot idoralari xodimlari bilan jismoniy tortishuvga bormasligingiz kerak.

**Ish joyimga ICE  
xizmati kelsa,  
nima qilsam  
bo'ladi?**



ICE xizmati har qanday ish joyining **jamoat uchun ochiq qismiga** hech qanday ordersiz kirishi mumkin.



**Jamoat uchun ochiq joylarga** quyidagilar kirishi mumkin: ofis qabulxonasi, supermarket, savdo do'koni yoki restoran ovqatlanish zali.



ICE agentlari **ish beruvchingizning ruxsati yoki sud orderiga** ega bo'lmasa, ish joyining shaxsiy hududiga qonuniy ravishda **kira olmaydi**.



**Shaxsiy hududlar** faqat xodimlar uchun mo'ljallangan joylar bo'lib, ular ish joyining dam olish xonasi yoki saqlash xonasini o'z ichiga olishi mumkin.



**Favqulodda vaziyatda**, masalan, jamoat xavfsizligiga yoki kimningdir hayotiga tahdid bo'lganda, ICE sizdan ruxsat so'ramasdan kirishi mumkin. Agar mana shunday holat yuz beradigan bo'lsa, **sukut saqlash huquqiga ega** ekanligingizni unutmang.



**Ish beruvchilar** ICE agentlaridan shaxsini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatishni va sud orderi bor-yo'qligini so'rashi mumkin.

Boshqa jamoat joylaridagi kabi, ishxonangizga ICE agentlari kelsa, **siz sukut saqlash huquqiga egasiz** va ularni ish beruvchingizga yo'naltirishingiz mumkin.



Har doimgidek, agar ICE agentlari cho'ntaklaringiz yoki narsalaringizni tintuv qilmoqchi bo'lsa, **“I do not consent to a search” (Tintuvga rozimasman)**, deyishingiz mumkin.



Agar sizni baribir tintishsa, ularni jismonan to'xtata olmasangiz-da, bunga rozi emasligingizni aniq aytishingiz kelajakdagi har qanday sud ishida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.



**Huquq-tartibot idoralari xodimlari bilan jismoniy tortishuvga bormasligingiz kerak.**

**Agar meni  
ushlashsa yoki  
hibsga olishsa,  
nima qilishim  
kerak?**



**Sukut saqlash** huquqiga ega ekanligingizni unutmang. **Siz advokat bilan gaplashish** huquqiga egasiz.



Sizda **sog'liq bilan bog'liq muammolar** bo'lsa yoki **bolangizga qarashni tashkil qilish** kerak bo'lsa, bu haqda ICE'ga aytishingiz mumkin.




ICE agentlari **siz biladigan tilda gapirmasligi mumkin**. ICE bilan gaplashayotganda yoki sizga tayinlangan uchrashuv va eshituvda tarjimon talab qilish huquqiga egasiz. **"I need an interpreter"** (Menga tarjimon kerak) deb aytishingiz mumkin.



Siz advokat bilan gaplashish huquqiga egasiz. Advokat bilan gaplashishdan oldin hech qanday hujjatni imzolashingiz yoki savollarga javob berishingiz shart emas.



Qo'lga olinganingizdan so'ng oila a'zolaringiz, do'stlaringiz, jamoatchilik yetakchilari yoki advokatingizga **qo'ng'iroq qilish imkoniyatingiz** bo'ladi.



Ushlab turilgan paytingizda, **oila a'zolaringiz, do'stlaringiz, jamoatchilik yetakchilari va advokatingiz bilan uchrashishingiz mumkin**. Shuni yodda tutingki, **har bir qamoqxonaning o'z qoidalari bor** va tashrif buyuruvchilar ular bilan oldindan tanishib chiqishlari kerak.



Agar ICE agentlari siz bilan gaplashmoqchi yoki hibsga olmoqchi bo'lsa, videoga olishni boshlash yoki davom ettirish sizni xavf ostiga qo'yishi mumkin. Biroq xodimlarga xalaqit bermasa, **atrofdagi odamlar ICE harakatlarini videoga olishi mumkin**.

**Siz o'zingiz yoki hibsga olinishingizga guvoh bo'lgan shaxs tomonidan qilingan har qanday audio, video yoki yozma qaydlarni advokatingizga berishingiz mumkin.**

**Batafsil ma'lumot olish uchun QR-kodni skanerlang.**



**Agar siz yoki yaqinlaringizdan biri deportatsiya qilinish xavfi ostida bo'lsa, chora-tadbirlar rejasini tuzib qo'ying.**

**1**

**Huquqiy imkoniyatlaringizni o'rganib chiqing. Ishonchli advokat bilan suhbatlashing va firibgarlardan ehtiyot bo'ling.**

 **1-800-354-0365**

**Dushanba – juma 9AM – 6PM**

Tarjima xizmati mavjud

Savollari yoki xavotirlari bo'lgan immigrant nyu-yorkliklar **ma'lumot olish va immigratsiya bo'yicha huquqiy yordam bilan bog'lanish** uchun Immigratsiya ishlari bo'yicha shahar hokimligi boshqarmasining (Mayor's Office of Immigrant Affairs, MOIA) Immigratsiya huquqiy yordam ishonch telefoni raqamiga qo'ng'iroq qilishlari kerak.



Immigratsiya qonunchiligi murakkab. Immigratsiya bo'yicha yolg'on va'dalar berishi mumkin bo'lgan huquqiy firibgarliklar yoki soxta provayderlardan ehtiyot bo'ling.

**Unutmang:** Litsenziyali advokat bo'lmagan davlat notariusi sizning nomingizdan immigratsiya hujjatlarini to'ldira olmaydi yoki topshira olmaydi. Shuningdek, ular sizga huquqiy maslahat ham bermasligi kerak.

2

## Oilangiz uchun reja tuzing.

### Favqulodda vaziyat uchun bog'laniladigan shaxsni tanlang va uning telefon raqamini yodlab oling.

Favqulodda vaziyat uchun bog'laniladigan shaxs siz ishonadigan inson, masalan, oilangiz a'zosi, do'stingiz, jamoatchilik yetakchisi yoki advokat bo'lishi mumkin.



**Hujjatlaringizni tartibga soling va** ularni favqulodda vaziyatda bog'laniladigan shaxslaringiz foydalana oladigan xavfsiz joyda saqlang.



**Muqobil vasiyni, ya'ni agar qo'lga olinsangiz, farzandingizga g'amxo'rlik qilishi uchun o'zingiz ishongan odamni tanlang.** Muqobil vasiylar o'z

qaramog'idagi bola uchun muhim qarorlar, jumladan, jiddiy tibbiy qarorlar va bolaning qaysi maktabga borishi haqidagi qarorlarni qabul qilish vakolatiga ega bo'ladi.

**Batafsil ma'lumot olish uchun**  
QR-kodni skanerlang.



# Qaydlar

[www.nyc.gov/knowyourrights](http://www.nyc.gov/knowyourrights)

Eng so'nggi ma'lumotlarni olish uchun:



- Telefoningiz kamerasini quyidagi QR-kodga yo'naltiring va bir necha soniya ushlab turing.
- Ma'lumotlarga kirish uchun ekranda paydo bo'lgan xabarnomaga bosing.

